

Muxitdinova Jamilaxon Ruslanovna

(NamDU)

Tojiddinova Sayyoraxon Komiljon qizi

(NamDU talabasi)

**TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISHDA O'QUVCHILARDA IJODIY-IJTIMOIY
FAOLLIKNI SHAKLLANTIRISHNING MOHIYATI VA MAZMUNI**

Annotatsiya: Ushbu maqolada texnologiya darslarida o'quvchilarni ijodiy-ijtimoiy faolligini rivojlantirish muhimligi, buning natijasida esa o'quvchilar fan bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni egallash, mustaqil topshiriqlarni bajarish, turli muammolarga yechim topishda ijodiy yondashuvni izchil ravishda tarkib toptirib borishga bog'liqligi aytib o'tilgan. Shu ma'noda, o'quvchilarda kreativlik qobiliyatlarni rivojlantirish muammosiga yetarlicha e'tibor qaratilmaganligi hamda o'z yechimini topish zarurligi ko'rsatib o'tilgan. Mazkur talablarni shaxs kasbiy va ijodiy sifatlari negizida shakllantirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bular ijodiy faoliyatning muvaffaqiyatini ta'minlovchi asosiy omil sanaladi.

Kalit so'zlar: Texnologiya fani, ijodkorlik, ijtimoiy faollik, kasbiy tayyorgarlik, kreativ, ijodiy va kasbiy sifatlar.

Аннотация: В данной статье подчеркивается важность развития творческой и социальной активности учащихся на уроках технологии, в результате чего учащиеся приобретают знания, умения и компетенции данному предмету, выполняют самостоятельные задания, последовательно развиваются творческий подход к поиску решений различных задач. В этом смысле показано, что проблеме развития творческих способностей учащихся и необходимости поиска самостоятельного решения проблем уделяется недостаточно внимания. Эти требования уместно сформулировать исходя из профессиональных и творческих качеств личности, так как они считаются основными факторами, обеспечивающими успех творческой деятельности.

Ключевые слова: Предмет технологии в школе, творчество, социальная активность, профессиональная подготовка, креативные, творческие и профессиональные качества учеников.

Abstract: This article emphasizes the importance of developing the creative and social activity of students in technology lessons, as a result of which students get knowledge, skills and competencies in this subject, perform independent tasks, and consistently develop a creative approach to finding solutions to various problems. In this sense, it is shown that insufficient attention is paid to the problem of developing students' creative abilities and the need to find independent solutions to problems. It is appropriate to formulate these requirements based on the professional and creative qualities of the individual, since they are considered the main factors ensuring the success of creative activeness.

Key words: Technology subject at school, creativity, social activity, professional training, creative, creative and professional qualities of students.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmonida qayd etilganidek, "2026 yilga qadar o'quv dasturlari va darsliklarni ilg'or xorijiy tajriba asosida to'la qayta ko'rib chiqib, amalda joriy etish"⁸ asosiy maqsadlardan biridir. Bu esa, albatta, ta'lif sifati va

samaradorligini oshishiga xizmat qiladi. Yangi milliy o'quv dastur va darsliklar mazmunini to'rtinchi sanoat tamaddunining harakatlantiruvchi kuchi deya e'tirof etilayotgan kreativlikka yo'naltirilgan va yoshlarda ijodkorlik sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan ma'lumotlar bilan boyitishni ustuvor vazifasifatida belgilansa, ta'lim tizimida ko'zlangan natijalarga erishgan bo'lar edik. Bunday milliy o'quv dasturi va darsliklar asosida ta'lim- tarbiya olgan o'quvchi-yoshlar o'zlarida ijodkorlik, yaratuvchanlik va kreativlik sifatlarini rivojlantiradilar, bu esa, Yangi O'zbekiston kelajagini rivojlantirishdagi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi.

Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy jadal o'zgarishlar, erkin bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o'rinni egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish har bir mutaxassisdan ijodiy yondashuv ko'nikmasiga ega bo'lish, uni izchil ravishda rivojlantirib borishni taqozo etmoqda. Bu o'z o'rnida yoshlardan har bir fanni, jumladan, texnologiya fanini xam o'qitishda fan bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini egallah, mustaqil topshiriqlarni bajarish, turli muammolarga yechim topishda ijodiy yondashuvni izchil ravishda tarkib toptirib borishga bog'liq.

Ammo ayrim hollarda o'quvchilarining aksariyati passiv, o'quv jarayonidagi faollik darajasi past, ularning ko'philigidagi maktab tomonidan berilgan bilim hayotda foydasi yo'qligiga ishonch hosil qiladi. Darhaqiqat, ayni paytda jamiyatga uni ijodiy isloh qilish, mamlakatning intellektual salohiyatini yuksaltirishga qodir yuksak bilimli, tashabbuskor va faol yoshlar zarur. Shuning uchun ham maktab bitiruvchilari yangi ijtimoiy munosabatlarga, raqobat muhitida qiyinchiliklarni yengishga tayyor bo'lishi va ijtimoiy himoyalangan bo'lishi darkor. Va eng muhimi, bitiruvchilar o'z-o'zini rivojlantirish, uzluksiz o'zini-o'zi takomillashtirish qobiliyatiga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega.

Bugun shiddat bilan rivojlanayotgan davr har birimizdan har bir jarayon, voqealarga hodisalarga ijodiy yondashishni, mantiqiy fikrlash, o'zining munosabatini bildirish hamda tez sur'atlarda qaror qabul qilishni talab etmoqda. Bunday vaziyatda esa albatta har bir shaxs o'zining mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatiga tayangan holda ish ko'rishi tabiiy hol. Shunday ekan, aniq va teran fikrga ega bo'lish, jamiyatdagi vogelikka kreativ yondashish kabi xususiyatlar insonni kamolotga yetishini ta'minlovchi ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bu pedagogik muammoni hal etish uchun nima qilish kerak, degan haqli savol tug'iladi. Buning uchun, ***birinchidan***, ta'limning sub'ekti bo'lgan o'quvchi shaxsini yetuk bir shaxs sifatida shakllantirish uchun, avvalo, o'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishlari pedagogik-psixologik tashxis qilishning zamonaviy texnologiyasi asosida amalga oshirilishi zarur. Xusan, milliy mentalitetimiz xususiyatlarini o'zida aks ettiruvchi zamonaviy tashxis usullarini ishlab chiqish va amaliyatga tatbiq etish zarur; ***Ikkinchidan***, texnologiya fanini o'qitishda o'quvchilarda ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirish va ishlab chiqarishdagi amaliy faoliyat xususiyatlari to'g'risida atroficha tushunchaga ega bo'lishlari lozim. Bu masalaning hal etilishi ko'p jihatdan o'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishlari samaradorligi bilan uzviy bog'liq. Biroq maktab o'quvchilari muhim va strategik ahamiyatga ega bo'lgan sohalardan: to'qimachilik, tikuvchilik, ip-tolalarni qayta ishlash, yengil sanoat sohadagi mutaxassislikka oid bilim malaka va ko'nikmalar to'g'risida yetarli tushunchaga ega emaslar.

Bu boradagi muammolar yechimini texnologiya fanini o'qitishda o'quvchilarda ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirish va yangi texnologiyasini ilmiy asosda ishlab chiqish orqali hal etish mumkin bo'ladi, deb hisoblaymiz.

Uchinchidan, texnologiya fanini o'qitishda o'quvchilarda ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirish jarayonida ularni bunday faoliyatiga jalb qilishning moddiy-vositaviy asosini ta'minlash bilan birga, ulardan samarali foydalanishni ta'minlovchi ilmiy-uslubiy asoslar yaratilmog'i lozim.

Bugungi kunda har qanday sohani zamonaviy talablar darajasida taraqqiy ettirishning eng asosiy omili ilg'or texnologiyalardan foydalanish bilan chambarchas bog'liq. Jumladan, texnologiya fanini o'qitishda o'quvchilarda ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirishning mahsuli zamon talablari darajasida bo'lishi uchun eng so'nggi axborotlardan foydalanish zarurati yuzaga kelmoqda. SHu sababli yangi axborot texnologiyalarini mamlakatimiz maktablari ҳтиyoji va imkoniyatlariga mos keladigan texnologiya fanini o'qitishda o'quvchilarda ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirish uchun muhim yo'naliш sanaladi.

To'rtinchidan, texnologiya fanini o'qitishda o'quvchilarda ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirish – kreativ faoliyatni amalga oshirish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini egallashlariga erishish lozim.

Chunonchi, davlat ta'lim standartlari hamda Malaka talablari asosida samarali ish olib borilmoqda. Biroq fikrimizcha, maktab o'quvchisi shaxsiga nisbatan qo'yiladigan talablarni ishlab chiqishda, pedagogik jarayonlarda va umuman ta'lim tizimida o'zining yetarli tatbiqini topishiga yo'nalgan bo'lishi zarur. Shu ma'noda, o'quvchilarda kreativlik qobiliyatlarni rivojlantirish muammosiga yetarlicha e'tibor qaratilmaganligi hamda o'z yechimini topish zarurligi namoyon bo'lmoqda. Mazkur talablarni shaxs kasbiy va ijodiy sifatlari negizida shakllantirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bular ijodiyfaoliyatning muvaffaqiyatini ta'minlovchi asosiy omil sanaladi.

Shaxsning ijodkorlik sohasida erishadigan muvaffaqiyatlari darajasini belgilovchi asosiy omil uning egallayotgan yoki shug'llananayotgan ijodiy faoliyat turinito'g'ri tanlagani va ayni paytda shaxsning o'zi ijodiy talablarga qay darajada javob bera olishi bilan belgilanadi. Demak, texnologiya fanini o'qitishda o'quvchilarda ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirish bo'yicha yangicha qarashlarni va metodikasini ishlab chiqish, ularning nazariy ta'limdan amaliy faoliyatga o'tish davridagi dolzarb muammolarni hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Yuqoridaagi mulohazalardan anglash mumkinki, bugungi kunda texnologiya fanini o'qitishda o'quvchilarda ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirish va ularda ijodiy qobiliyatini tarkib toptirish muhim pedagogik muammo bo'lib, bunda mazkur muammoni hal etishning boshlang'ich tayanch nuqtasi sifatida kasbga yo'naltirish ishlarini to'g'ri tashkil etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyotstrategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. Toshkent. 2022 yil 28 yanvar.
2. D.F.Jalolova. Maxsus fanlarn o'qitishda o'qituvchilarning mustaqil ish ijodiy ishslash faoliyatlarini rivojlantirish (Kasb-hunar kollejlarining "Tikuvchilik ishlab chiqarish" yo'nalishi misolida): Diss. ...ped. fan. nomz. – Toshkent: 2009. – 170 b.
3. P.T.Magzumov, An S. Pedagogicheskoe tvorchestvo v osnove innovatsii v pedagogike // Kasb – hunar ta'limi. – Toshkent, 2001 – № 6. – C. 16– 22
4. N.Muslimov va boshqalar. Pedagogika (nopedagogik oliy ta'lim muassasalari uchun). – T.: TDPU.2013. 15,25 b.t.
5. Z.Nishanova. Mustaqil fikr rivojlanganligining psixologogik mezonlari // Xalq ta'limi. –T.: 2001. –№ 1. 34-37 b.

6. J.R.Muxitdinova. Features of the development of creative mental activity of students within the technological education. International multidisciplinary conference “12th Tech-Fest-23”, published with Conference International Database. Manchester, England. March 25th 2023. 6-8 pp.

7. J.R.Muxitdinova. O'quvchi talabalar ijodiy fikrlash faolligini rivojlantirishda texnologiya ta'lmini o'rni va metodlari. Zamonaviy ta'lim. Тошкент. № 7, 2022. 21-34 bb.